

Samarqand davlat chet tillar institutida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma ta'lim dasturlariga 2024/2025 o'quv yili uchun quyidagi bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha qabul jarayoni boshlanganligini ma'lum qilamiz.

**Samarqand davlat chet tillar institutining  
2024/2025-o'quv yili qabuli uchun xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturi  
asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha to'lov-kontrakt asosida qabul ko'rsatkichlari**

Shifr	Mutaxassislik nomi	Hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasasi nomi	To'lov kontrakt asosida qabul ko'rsatki chlari	Ta'lim shakli	O'qish muddati (OTM + hamkor OTM, yil)
	<b>Bakalavr</b>		<b>90</b>		
60230100	Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili	Koreya Respublikasi Vusak Universiteti (Woosuk University of the Republic of Korea)	30	kunduzgi	2+2
60230100	Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili	Rossiya Feredatsiyasi Oltoy davlat pedagogika universiteti (Алтайский государственный педагогический университет Российской Федерации)	30	kunduzgi	2+2
60230100	Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili	Rossiya Feredatsiyasi Oltoy davlat pedagogika universiteti (Алтайский государственный педагогический университет Российской Федерации)	30	kunduzgi	2+2

	<b>Magistratura</b>		<b>40</b>		
70110901	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili TESOL	Koreya Respublikasi Til o'qitish xalqaro oliy maktabi (International Graduate School of Language Education of the Republic of Korea)	20	kunduzgi	1+1
70110901	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ELT	Koreya Respublikasi Til o'qitish xalqaro oliy maktabi (International Graduate School of Language Education of the Republic of Korea)	20	kunduzgi	1+1

Mazkur ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga 2024-yilning 30-avgust kundan 10 sentabr kuniga qadar qabul davom etadi.

#### **BAKALAVRIAT:**

- Vusak universiteti bilan 2+2 shaklida tashkil etilgan "Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili" ta'lim yo'nalishi;
- Oltoy davlat pedagogika universiteti bilan 2+2 shaklida tashkil etilgan "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili" ta'lim yo'nalishi;
- Oltoy davlat pedagogika universiteti bilan 2+2 shaklida tashkil etilgan "Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili" ta'lim yo'nalishi;

## **MAGISTARURA:**

- Til o‘qitish xalqaro oliy maktabi bilan 1+1 shaklida tashkil etilgan “Xorijiy til va adabiyoti” (TESOL) mutaxassisligi;
- Til o‘qitish xalqaro oliy maktabi bilan 1+1 shaklida tashkil etilgan “Xorijiy til va adabiyoti” (ELT) mutaxassisligi.

## **QABUL TALABLARI:**

### **BAKALAVRIAT:**

- Talabgorlarning til bilish darajasini belgilovchi xalqaro va milliy B2 darajali sertifikatga egaligiga ustuvorlik beriladi.

### **MAGISTRATURA:**

- Magistratura uchun tanlovda talabgorlarning diplomlaridagi o‘rtacha bahosi va suhbat natijalariga qarab saralab olinadi.
- Talabgorlarning til bilish darajasini belgilovchi xalqaro va milliy C1 darajali sertifikatga egaligiga ustuvorlik beriladi.
- Magistratura mutaxassisligiga hujjat topshiruvchi talabgorlar til bilish darajasini belgilovchi B2 darajali sertifikatga ega bo‘lishi shart.

Hujjatlar faqat onlayn qabul qilinadi, Oliy ta'lim muassasasida qabul qilinmaydi.

Onlayn hujjat topshirish quyidagi havola orqali amalga oshiriladi:

→ <https://anketa.samdchti.uz/>

Qabul bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar [Axborot xizmati](#) telegram kanalida joylab boriladi.